

## O‘ZBEKISTONDA INNOVATSION ZARGARLIK SAN’ATINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Dadamuxamedov Fasixitdin Gulyamovich**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professori,*

*O‘zbekiston xalq ustasi*

**Dadamuxamedov Bobir Fasixitdinovich**

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti o‘qituvchisi,*

*San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*zargar.bobur@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada 2000-2022 yillarda O‘zbekistonda innovatsion zargarlik san’atining rivojlanish bosqichlari, yosh zargarlar va ularning ijodlarida zamonaviy, noan’anaviy, modern, avangard kabi tendensiyalar asosida yaratilgan innovatsion uslub va zargarlik buyumlari tahlil qilinadi. Katta avlod vakillari va boshqa ko‘plab yosh iste’dodli zargarlarning ijodiy qobiliyatlari innovatsion zargarlik buyumlarini yaratishga, shuningdek, zargarlik korxonalarini va brendlarida yuqori sifatli original zargarlik buyumlarini ishlab chiqarishga intilishda davom etayotgani tahlil qilindi.

**Kalit so‘zlar:** ijodkorlik, innovatsiya, modern, avangard, etno, mumtoz, konstruktivizm, mokume-gane

**KIRISH.** Yangi O‘zbekistonda zargarlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar sababli bugungi kunda yurtimizning deyarli barcha hududlarida faoliyat ko‘rsatib kelayotgan zargar ustalar o‘z san’atlarini rivojlantirib, zargarlikning eng yaxshi qadimiy an’analarini va boy tajribalaridan samarali foydalangan holda yangi san’at asarlarini yaratib kelmoqda. Innovatsion yo‘nalishda ijod qilayotgan yosh zargarlar uchun badiiy an’ana samoviy tartibning birinchi tamoyillari dunyosini, zargarlik buyumlari yaratilish qonunlarini kashf qilgan

ajdodlarimizning bilimlarini anglatuvchi mohiyatning falsafasiga o‘xshaydi. Yosh zargarlar ijodida barcha mahalliy maktablarda yagona mushohada mavjud bo‘lib, shakllar, ranglar, majoziy va naqshinkor motivlarning an‘anaviy ramziy tilida ifodalangan yaxshilik va yomonlik kurashini anglatadi.

XXI asrning birinchi 20-yilligi mobaynida toshkentlik Gulnora Tosheva, aka-uka Muxsin, Tal‘at va Bobur Dadamuxamedovlar, Mirvosil Obidov, Bobur Muxamedov, Mexridin Xoliqov, Ramziddin Azizov, Anel Ulumbekova, dizayner Ulug‘bek Xolmurodov, marg‘ilonlik Yaxyo Abdujabborov, g‘uzorlik (Qashqadaryo) Sharifjon Raupov, buxorolik aka-uka Qosimjon va Suxrob Mirakovlar, Shoxrux Xamrayev, Shavkat Xatamov, samarqandlik aka-uka Otabek va Oybek Tillayevlar, chimboylik (Qoraqalpog‘iston) Odil Tojmuratovlar kabi ko‘plab yosh zargarlar milliylikka asoslangan an‘anaviy, zamonaviy hamda innovatsion yo‘nalishdagi zargarlik taqinchoqlarini yaratib kelmoqdalar. Bugungi kunda, mazkur yo‘nalishlarni mumtoz, etno, avangard, modern, minimalizm kabilarga ajratishimiz mumkin. Ular orasida aynan innovatsion yo‘nalishda dastlab E.Gostev, N.Xolmatov, L.Avakyanlar ijod qilgan bo‘lsalar, bugungi kunga kelib esa, A.Ulumbekova, U.Xolmurodov, M.Xoliqov, R.Azizov, Yu.Kutovaya kabi bir qator yosh iste‘dodli zargarlar faoliyat yuritib, yangiliklar yaratishda davom etmoqdalar.

Ular orasida E.Gostevning asarlari aynisa, tahsinga sazovor. Zargarning har bir asari o‘zining shakl-shamoyiliga ega bo‘lib, qo‘llaniladigan ba‘zi shakllar zaminida sharqona chizgilar namoyon bo‘ladi. E.Gostevning asarlaridagi har bir bezak juda puxta o‘ylangan. Mayda bezak markaziy naqshga uyg‘unlashadi. Usta bo‘lajak asarlarining shaklini dastavval hayolan yaratadi. Hamma tomonlari puxta o‘ylanganidan so‘nggina u amaliy ishga kirishadi. Agarda hayolidagi kashf etilgan nusxa faqat ma‘danda ishlanishni talab qilmasa, darhol boshqa xom ashyo bilan almashtiriladi. Bu esa, zargarning mahorati yuqori ekanidan dalolat beradi.

Shu o‘rinda yana bir mohir zargar, O‘zbekiston xalq ustasi N.Xolmatovning ijodiy izlanishlari to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tish joizdir. N.Xolmatovning zargarlik

buyumlari o‘ziga xos konstruktivligi bilan ajralib turadi. Bir vaqtning o‘zida ushbu zargarlik namunalari kichik hajmdagi yorqin bezakli bo‘rtib turgan kompozitsiyalarni eslatib, ularga ma’lum darajada semantik urg‘u berilganligini guvohi bo‘lamiz. Muallif o‘z asarlarida ma’ danning tekis sathini rang-barang toshlar va naqshlar bilan uyrunchashtirish natijasida badiiy yechimning lo‘ndaligi va soddaligiga erishadi. Uning yangilik yaratishga intilish yo‘lidagi nozik badiiy sezgirlik va ijodiy yondoshuvi, yaratgan asarlarida rang timsolligi, obrazlar ramziyligi va mavzuning falsafiy teranligi o‘z ifodasini topganligi bilan tahsinga sazovor. N.Xolmatovning ayniqsa zargarlik buyumlari o‘ziga xos konstruktivligi bilan ajralib turadi. Bir vaqtning o‘zida ushbu zargarlik namunalari kichik hajmdagi yorqin bezakli bo‘rtib turgan haykalli kompozitsiyalarni eslatib, ularga ma’lum darajada semantik urg‘u berilgan. Buning natijasida uning ijodidagi zamonaviy uslub yoki yo‘nalish yangilikni faol ijodiy izlash orqali, o‘tmish an‘analariga avaylab munosabatda bo‘lgan, ularni samimiy o‘zlashtirgan va butunjahon san‘ati yutuqlarini idrok etgan holda shakllantirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotganligi ahamiyatga egadir. Ana shunday uslubda yaratgan asarlaridan biri, O‘zbekiston amaliy san‘at muzeyi ekspozitsiyalaridan o‘rin olgan 1982 yilda yaratilgan “Qarg‘a shoyi” nomli tumori hisoblanadi. Tumor beshta qismdan iborat bo‘lib, ko‘rinishi shu nomdagi atlas nusxasidan olinganligi ijodkorning nechog‘lik yuksak salohiyat egasi ekanligidan dalolat beradi. Sababi atlas matosidagi shakl va naqshlarni zargarlik buyumlarida aks ettirish zargardan yuqori darajadagi ijodiy yondoshuvni talab etdi va o‘z o‘rnida o‘zbek zargarlik san‘atidagi yangilik sifatida qabul qilindi. Ayni vaqtda tumor O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyining ekspozitsiyasidan joy olgan. (O‘zbekiston amaliy san‘at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi, Inv. № 324).

Zargar-dizayner Levon Avakyan 1987 yildan 2000 yilgacha Toshkentda ishlagan, Sobiq Ittifoq dizaynerlar uyushmasiga a‘zosi. O‘zbekiston antikvarlari va zargarlik buyumlari Davlat muzeyida, xalqaro zamonaviy san‘at biyennalesida (1996, 1998), Moskva, Sankt-Peterburg va Olmotada zamonaviy amaliy san‘at

ko‘rgazmalarida namoyish etilgan o‘zbek zamonaviy rassomlarining ko‘rgazmalarida qatnashgan. Monrealga ko‘chib o‘tgandan so‘ng, u Kanadadagi bir qator zargarlik kompaniyalari bilan dizayner sifatida hamkorlik qiladi, xalqaro loyihalar uchun individual badiiy loyihalarda ishlaydi.

Zargarlik san’ati ixlosmandlariga rassom-modelyer, zargar Anel Ulumbekovaning ijodi ham yaxshi tanish. Toshkentlik mashxur zargar L.Avakyanning shogirdi A.Ulumbekova o‘ziga xos ijodi bilan respublikaning yetakchi zargarlari qatoridan joy olishga muvaffaq bo‘ldi. Uning asarlarining assortimenti keng – uzuk va buyin taqinchoqlari, to‘g‘nog‘ich va boshqalar shular jumlasidandir. A.Ulumbekovaning asarlari boshqa kasbdoshlarining buyumlaridan kompozitsiya erkinligi va jo‘nligi bilan ajralib turadi. Ularda biron-bir zargarlik maktabining an’analarini yoki biron zargar ustaning ta’siri ko‘rinmaydi. Yosh zargar o‘zining kuzatuv va izlanishlari orqali har bir metalning o‘ziga xosligi va jozibasini qay yo‘sinda bo‘lmasin, kashf etishga harakat qilgani namoyon bo‘ladi. Usta metall bilan ishlash jarayonida eritilayotgan metallar bo‘laklarini turli shakllarga kirishi orqali kutilmagan shakllar paydo qiladi. A.Ulumbekova mana shu nozik paytdan foydalanib, ularga ozgina badiiy va texnik ishlov berish orqali umuman kutilmagan, kompozitsiya tomonidan qiziqarli shakllarni kashf etmokda. O‘z navbatida uning ushbu izlanishlariga oid uslub va yo‘nalishni innovatsiya deb ta’rif berish o‘rinli. Sababi uning asarlari g‘ayrioddiy va kutilmagan unsurlarga, shakllarga juda boy.

Iste’dodli zargar usta, “Holmuradov Design” brendi asoschisi, “Hunarmand” uyushmasi a’zosi, dizayner-zargar U.Xolmurodovning asarlari ham texnik tomondan nozikligi va metall bezakdorligini uslub tomondan ko‘rsatishga harakat qilganligi bilan diqqatga molikdir. Levon Avakyanning shogirdi hisoblangan U.Xolmurodov hozirda ustozining an’analarini davom ettirmokda. U.Xolmurodov ijodidagi uslubiy izlanishlari ikki asosiy yo‘nalishni o‘zida mujassam etgan. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, “birinchi yo‘nalish Sharq, zamonaviy dizaynning juda kuchli uyg‘unlashuvlariga ega.

Uning oltin, kumush, jez kabi metallardan va turli toshlar qadalib ishlangan zargarlik buyumlari – qo‘l va bo‘yin taqinchoqlari har doim o‘zida ma‘lum bir kayfiyatni singdira olishi bilan ajralib turadi. Ulug‘bek Xolmurodov tomonidan mis, jez, nikel, kumush, oltin, platina kabi metallardan mahorat bilan yasalgan hamda feruza, lojuvard, aqiq, xalsedon, marjon, kabi toshlar qadalgan bilakuzuklar, uzuk, bo‘yin bezaklarni muallif yosh bo‘lishiga qaramasdan katta iqtidor va mahorat bilan ishlab chiqqanligi tahsinga sazovordir. 1995 yildan buyon o‘zining ijodiy izlanishlarini boshlagan zargar 2010 yilga kelib “Holmuradov Design” brendiga asos soladi. Mazkur brendda mazmunli, chuqur falsafa hamda geometrik chiziqlar va shakllar bilan boyitilgan zargarlik buyumlari o‘rin olgan. Zargarining “Meros”, “Panjara”, “Box” (“Quti”), “Sharqona”, “100% sotton” (“Paxta”), “White Gold & Diamonds” (“Oq oltin va olmoslar”), “Modern” kabi mavzularda yaratilgan zargarlik kolleksiyalari zargar uchun mashhurlik keltirgan. “Holmuradov Design” brendi o‘zining geometrik dizayni, ijtimoiy yo‘naltirilgan loyihalari va dadil taqinchoqlari bilan mashhur. Shuning uchun har bir taqinchoq mustaqil san‘at obyektini sifatida ko‘zga tashlanadi. Bu taqinchoqlardagi zargar me‘morchilik elementlarini qo‘llash asnosida, vaqt va u orqali makonni ko‘rishi ifodalangan. Bir so‘z bilan aytganda, U.Xolmurodovning zargarlik asarlarida konstruktivizmga asoslangan modern uslubidagi innovatsion yechimlar ifodasi o‘z aksini topgan.

Innovatsion yo‘nalishda ijod qilayotgan yana bir yosh zargar Ramziddin Azizov bo‘lib, u dastlab ijodiy faoliyatini “Zeb ichra ziynat” korxonasi boshlagan. 2015 yilda “Ramz Jewel” brendiga asos soldi va shu kungacha mazkur brend nomi ostida faoliyat yuritib kelmoqda. R.Azizovning zargarlik buyumlari o‘tmishning hozirgi zamon bilan aloqasi bo‘lib, unda an‘anaviy zargarlik buyumlari va shakllari zamonaviy tendensiyalar ritmi bilan chambarchas bog‘liq.

Ushbu yo‘nalishning yana bir namoyandasi Fanis Axmetzyanov bo‘lib, u Toshkent viloyatining Chirchiq shahrida yashab ijod qilib kelmoqda. Zargarlik hunarini mustaqil o‘zlashtirib, 1986 yildan beri u zargar sifatida faoliyat olib boradi. U o‘z ijodida qo‘llaniladigan xom ashyolar ko‘lamini kengaytirish maqsadida

amaliy san’at va badiiy hunarmandchilik sohalaridan biri sifatida pichoqlarga badiiy ishlov berish uslubiga murojaat qildi. Bu esa, o‘z navbatida usta hnarmandga juda ko‘p turli xil xom ashyolardan foydalanish imkonini yaratdi. Yog‘och, po‘lat, kumush, suyak, tosh, teri, shox va Damashq po‘lati bilan ishlash uning turli ijodiy qirralarini ochishga, o‘zini namoyon qilishga yordam berdi. F.Axmetzyanov doimo ijodiy izlanishda bo‘lib, o‘z g‘oyalarini tajribadan o‘tkazish uchun yangi uslublarni o‘zlashtiradi, yangi innovatsion vositalarni qidiradi. Ijodiy izlanishlar uni Damashq po‘latidan foydalanishga olib keldi, u mazkur metallni nafaqat pichoqlarda, balki zargarlik buyumlarida qo‘shimcha sifatida ham ishlatgan. Yaqinda uning ijodida yapon zargarlari tomonidan qo‘llaniladigan “mokume-gane” texnikasi paydo bo‘ldi. “Mokume Gane” – bu 300-400 yildan beri mavjud bo‘lgan yapon metallga ishlov berish texnikasi. Bu nom bir nechta yaponcha so‘zlardan iborat: “mo” – yog‘och, “kume” – tekstura, “gane” – metall, ya’ni “yog‘ochga o‘xshash metall” deb tarjima qilish mumkin. Aslida, mazkur texnikaning mohiyati metalldan yaratiladigan ziynat buyumlari yuzasida daraxt qobig‘ining naqshini hosil qilish hisoblanadi. An’anaviy hamda noodatiy zargarlik taqinchoqlariga ushbu texnikani qo‘llash zargarning ijodiy imkoniyatlarini yanada ortishiga olib kelmoqda. Zargar tomonidan bu noyob texnikani o‘zlashtirilishi va u yaratayotgan zargarlik taqinchoqlarida qo‘llanilishi yurtimiz zargarlik san’ati uchun o‘ziga xos yangilik, ya’ni innovatsiya, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ko‘p yillardan buyon innovatsion uslubda hamkorlikda ijod qilayotgan zargarlardan Gulnora va Aleksandr Barkovskiylar tandemining ijodi o‘zgacha tusga ega. Ikki ijodkorning o‘zaro mualliflik uslubi turli madaniy davrlardagi bezak naqshlarining etnik-tarixiy belgilar, ramzlar va mifopoetik semantika aralashmasi bilan bog‘liq bo‘lib, benuqson ijro texnikasi, qimmatbaho metallar va yuqori sifatli tabiiy marvaridlar va minerallardan foydalanish bilan belgilanadi. Ularning ishlarida bir-biridan mustaqil ravishda rivojlanayotgan ikkita tendensiya ajralib turadi: majoziylik va dekorativ ekspressivlikka yo‘g‘rilgan Yevropa uslubi ruhiyati singdirilgan zargarlik buyumlari dizayni.

O‘z ishlarida Barkovskiylar asl zargarlik an‘analariga murojaat qilishadi. Shunday qilib, O‘rta Osiyo zargarlik uslubining go‘zal mualliflik stilizatsiyasi – qadimgi qalampir marjoni, daryo marvaridlari va qadimgi Buxoro kumush tangasidan iborat “Monisto” to‘plami yuqoridagi fikrimizning yorqin ifodasi hisoblanadi. To‘plamning marjonlari qadimgi an‘anaviy o‘zbek texnologiyasi bo‘yicha tayyorlangan murakkab to‘qilgan zanjir bilan bezatilgan. Zargarlik san‘atida plastik fikrlashni kengaytirishga qaratilgan qiziqarli urinish “Moviy emal” to‘plami va “Skeletonlar” sirg‘alari orqali namoyish etilgan. “Moviy emal” to‘plami Rishton kulolchilik buyumlarining ko‘rinishi va rangini o‘zida yorqin talqin qiladi. To‘plam bezagi moviy, ko‘k ranglardagi taginishin texnikasi va ko‘k feruza toshlaridan foydalanilib yaratilgan. Bunday holda, mualliflar Rishton kulolchilik elementlarini badiiy asosiy manba sifatida qabul qilib, zargarlik san‘ati “qonun”laridan tashqariga chiqadilar. Shu bilan birga, ular xalq semantikasining assotsiativ-majoziy palitrasi va sharqona naqshlarning emotsional yuksalishini saqlab qolgan holda o‘zbek xalq amaliy san‘ati uslubining “taniqlilik” effektiga erishdilar.

Garchi, ularning ijodiy izlanishlarining asosiy sohasi intellektual tarkib bo‘lib, u, xususan, “tarixiy va klassik sitatalarda”, turli xil uslubdagi topilmalar elementlari va hattoki boshqa san‘at turlaridan dekorativ texnikada aks ettirilgan va asarlarni shakllantirish va bezashda ishlatiladi. Shunday qilib, O‘zbekistonning zamonaviy zargarlik san‘ati an‘analarning qadimiyligi va barqarorligini tasdiqlaydi. Bu esa, o‘z navbatida Gulnora va Aleksandrlarning ijodida innovatsiya birlamchi o‘rin egallaganidan dalolat beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** O‘zbekiston zargarlik san‘ati va sanoatining shakllanishi, rivojlanish tamoyillari va xususiyatiga doir qator ilmiy adabiyotlar mavjud bo‘lib, ular xronologik jihatdan o‘rganildi va tadqiq etildi. D.Faxretdinova, A.Xakimov larning tadqiqotlarida O‘zbekiston zargarlik san‘atini tarixiy-madaniy davrlashtirish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, qadimgi davrdan to XX asrning 80-yillariga qadar bo‘lgan davrda zargarlik

san’ati rivoji, taqinchoqlarning turkumi va maishiy hayotdagi o’rni tahlil qilingan bo’lsa, K.Akilova, N.Azizova, Ye.Ermakova (Shironina), Ye.Gorojankina, Ya.Chvir, G.Babadjanova, Sh.Shoyoqubov, Z.Aliyeva, M.Niyazova, Sh.Mahkamov, G.Yuldasheva, M.Abdullayev, D.Bobojonov izlanishlarida esa muayyan tarixiy-nazariy masalalar ko’tarilgan. Shuningdek, XIX-XX asrlarda zargarlik san’atida qo’llanilgan texnika-texnologiyalar, zargarlar va ularning ijodiy izlanishlari tahlil qilingan, D.Atamuratova, N.Yuldashova, S.Davlatova larning tadqiqotlarida O‘zbekiston zargarlik san’atini o‘rganish borasidagi yangi nazariy yondashuvlar, uning ma’naviyat, an’analar, zamonaviy jarayonlar bilan bog‘liqligi o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston zargarlik san’atidagi etnomadaniyat mutanosibligi, taqinchoqlardagi naqshlar mazmuni (semantikasi), ma’nosi, sohadagi mavjud kasbiy-badiiy masalalar E.Gyul, B.Nodir va T.Geyzlarova larning tadqiqotlarida bayon etilgan. Yuqoridagi barcha ilmiy tadqiqotlarda zargarlik san’atiga doir masalalarni o‘rganish borasida fanlararo yondashuv va san’atshunoslik jihatlariga e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston zargarlik san’atini ilmiy o‘rganishda xalqaro va respublika doirasidagi ko‘rgazmalar, festivallar, albomlar va kataloglarga ham tayanildi.

Maqola mavzusi doirasidagi ma’lumotlarni to‘plash va shakllantirishda bugungi globallashuv davrining iqtisodiy, ijtimoiy-tarixiy omillari va badiiy jarayon xususiyatlari ta’sirida shakllangan O‘zbekiston zargarlik tarmog‘ini mahalliy sanoatning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish va bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni o‘rganishdagi tarixiy-madaniy, etnologik, tarixiy-semantik, qiyosiy tahlil, badiiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**NATIJARLAR.** Bugungi kunda yurtimizda zargarlik sohasini yangi bosqichga olib chiqishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Sababi zargarlik mahsulotlari butun dunyoda xaridorgir. Bugungi kunda zargarlik tarmog‘ida jahon bo‘ylab ishlab chiqarish hajmi yiliga 5-6 foizga o‘sayotgani, tovar aylanmasi 250 milliard dollardan oshayotgani bu sohada ulkan bozor borligini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda bu soha ko‘p yillar e’tibordan chetda qolgan edi. Zargarlik korxonolari asbob-

uskunalarining 80 foizi eskirgan, ayrimlarida ishlab chiqarish to‘xtagan edi. Yurtimizda zargarlik sohasiga davlat darajasida berilayotgan imkoniyatlar sababli sohaga chet el investitsiyalarini faol jalb etish, raqobatbardosh va sifatli zargarlik buyumlarini tayyorlashda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Shu asnoda 2021 yilning 15 yanvar kuni Toshkentda sobiq “Fonon” ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi negizida ishga tushirilgan “Gold Moon Tashkent” mas’uliyati cheklangan jamiyati ana shu imkoniyatlar natijalaridan biri. Qiymati qariyb 21 million dollar bo‘lgan mazkur loyiha doirasida yiliga 6 tonna zargarlik buyumlari ishlab chiqarish quvvati tashkil etilgan. Italiya, Germaniya va Turkiyadan zamonaviy asbob-uskunalar keltirib o‘rnatilgan. Ishga 200 dan ortiq mohir zargar jalb qilingan. Italiyalik dizayner va texnik xodimlar ularga o‘z mahorat va tajribalarini o‘rgatmoqda. Mazkur korxonada mahsulotlari zamonaviyligi, sifati va nafisligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda ularning xaridori ko‘payib, import o‘rnini bosmoqda. *Hozir 4 ta yo‘nalishda mahsulot ishlab chiqarilayotgan bo‘lib, bular: quyma modellar, avtomatik tarzda to‘qiladigan zanjirlar, bosma yordamida ishlab chiqariladigan zargarlik buyumlari va ichi g‘ovakli zargarlik buyumlari.*

Shuningdek, 2022 yilning 27 iyun kuni Xivada “Gold City Khazarasp” zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish korxonasining loyiha taqdimoti o‘tkazildi. 10 iyul kuni Namangan shahridagi “Gold Invest Silver” korxonasi qoshida tashkil etilgan “Gold Center”, 17 noyabr kuni esa Toshkentda Markaziy Osiyodagi eng yirik “Chorsu Gold Center” olin savdo markazlari ishga tushirildi. Savdo makazlaridagi do‘konlarda Italiya, Turkiya va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari, shuningdek, yurtimizning “Fonon”, “Gavhar”, “Butterfly”, “Silkway Jewellery Manufacture” MCHJga qarashli “Sofizar”, “Gold Invest”, “Nonna Gold” kabi zavodlarning mahsulotlari sotuv jarayoni yo‘lga qo‘yildi.

**MUHOKAMA.** Zargarlik tizimining sanoat darajasiga ko‘tarilishi va qulay ishbilarmonlik muhitida faoliyat ko‘rsatishi uchun huquqiy asoslar moliyaviy imkoniyat va rag‘batlar yetarli. Ko‘hna naqllarga amal qilgan holda, dunyoning

mashhur brendlari bilan raqobatlashish, milliylikka uyg'un zamonaviy zargarlik buyumlari bilan dunyo bozorlarini egallash asosiy vazifa. Uch yarim milliarddan ortiq ayollar yashayotgan bu dunyoda zargarlar uchun ish miqyosi juda katta, lekin ular qalbiga yo'l topish, nozik did va xilqatlariga munosib durdonalar yasash oson ish emas. Shu bois o'ta yuksak mas'uliyat, katta qunt-sabr va izlanishlar evaziga noyob hamda betakror zargarlik buyumlari yaratilgan va bundan keyin ham olam ahlini hayratda qolaveradi.

**XULOSA.** Maqolada keltirilgan yuqoridagi bir qator masalalar asosidagi fikr-mulohazalarga tayanib quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. An'analarini saqlagan holda zamonaviy, innovatsion zargarlik mahsulotlarini yaratish;
2. Internet tarmog'ida O'zbekiston zargarlari ijodini targ'ibot qiluvchi hamda mahsulotarni yorituvchi onlayn platformaga ega veb-sayt tashkil qilish;
3. San'atshunoslarning tadqiqotlari va rivojlangan davlatlarning tajribalariga tayanib sohaga oid zarur o'quv adabiyotlar yaratish;
4. Zargarlik sanoati uchun tizimli professional kadrlar tayyorlashni tashkil etish;
5. Zargarlik san'ati va zargarlik sanoatini o'zaro integrasiyasini shakllantirish;
6. Zargarlik sohasida zamonaviy texnologik uskunalar va innovatsion izlanishlarni amaliyotga tatbiq etish;
7. Xalqaro talablarga muvofiq zargarlik mahsulotlarini sertifikatlashtirish va standartlashni ta'minlash;
8. Milliy zargarlik san'ati an'analari asosida zamonaviy mahsulotlarni sanoatlashtirilgan tizimda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
9. Zargarlik sanoatiga milliy zargarlik an'alarini kiritish orqali "O'zbek zargarlik brendi"ni yaratish hamda zargarlik korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ushu milliy brend nomi ostida jahon zargarlik bozoriga olib kirish va sohada eksportni rivojlantirish.

10. Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti hamda Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetidagi sohaga oid mavjud ustaxona-laboratoriyalarini zamonaviy texnika jihozlari va xom ashyolar bilan ta'minlash masalasini hal etish talaba-yoshlarning bilim olishiga asos vazifasini o'taydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akilova K. Toshkentning an'anaviy badiiy hunarmandchiligi: o'tmish, bugun va kelajak // San'at, 2007, № 2. – 17-20 b.
2. Akilova K. Mustaqillik davrida O'zbekiston an'anaviy badiiy hunarmandchiligi // San'at, 2016, № 2. – 18-23 b.
3. Dadamukhamedov B. Development Processes of Innovative Jewelry Art in Uzbekistan // Current Research Journal of History. SJIF Impact Factor: 2023:6.531). Volume 04, Issue 02-2023. – Berlin: Master Journals. Published: February 10, 2023. – P. 01-06.
4. Dadamuxamedov F. O'zbekiston zamonaviy zargarlik san'ati // K.Behzod nomidagi MRDI Axborotnomasi. – T.: K.Behzod nomidagi MRDI, 2023. – 3-8 b.
5. Dadamuxamedov F. Badiiy zargarlikda zamonaviy yondashuv // Journal of new century innovations. Vol. 7, № 6, Jun. 2022. – 154-157 p.
6. Dadamukhamedov F.G., Dadamukhamedov B.F. The Jewelry Industry in Uzbekistan is One of the Main Drivers of the Domestic Industry // Central Asian Journal of Arts and Design. Volume:05. Issue:02. Feb.2024. – Spain: Central Asian Studies Publisher. – P. 6-11.
7. Dadamuxamedov F., Dadamuxamedov B. Ipak yo'lining moddiy madaniy merosini o'rganish va saqlashning dolzarb masalalari. I Xalqaro ilmiy-amaliy simpozium materiallari. – Samarqand, 2024. – 328-332 b.
8. Xakimov A. O'zbekiston san'ati tarixi. Qadimgi davr, o'rta asrlar, hozirgi zamon. – T.: Zilol buloq, 2022. – 528 b.

9. Khakimov A. The Art of The Northern regions of Central Asia // History of Civilizations of Central Asia, Volume VI. – Paris: UNESCO Publishing, 2005. – 614-624 p.
10. Xakimov A. Farg‘ona vodiysi amaliy san‘ati: an‘ana va innovatsiya // San‘at, №3/2013. – 23-27 b.
11. Kambarova O. Своеобразие ювелирного искусства Узбекистана и генезис зооморфных украшений // Problems and scientific solutions. Australia, Melbourne, 2022. – 234-240 p.
12. Kambarova O., O‘ktamova S. O‘zbekiston zargarlik san‘ati // Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 02 | 2022. ISSN: 2181-2608. – 122-124 p.